

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ИНСТИТУТ ИБ. ФИЗИКА-МАТ.



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GWARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
---	----

Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: usmon25011992@gmail.com

ORCID: 0009-0008-6533-9108

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak bilan ta'minlashning nazariy, tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda kiyim-kechak ta'minoti harbiy xizmatchining tashqi ko'rinishi yoki belgilangan forma bilan ta'minlanishidan kengroq mazmunga ega bo'lib, xizmatga shaylik, tibbiy-taktik xavfsizlik, harakat erkinligi, budget intizomi va ombor-hisob nazoratini birlashtiruvchi murakkab iqtisodiy-logistik tizim sifatida asoslangan. Maqolada ta'minot me'yorlari, foydalanish muddati, qoldiq qiymat, moddiy javobgarlik, real xizmat ehtiyoji, sifat ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy model va iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ochib berilgan. Natijada Milliy gvardiya tizimida kiyim-kechak ta'minotini real ehtiyojga asoslangan rejalashtirish, differensial me'yorlar, hayotiylik sikli qiymati, shaxsiy elektron hisob va xizmat xavfsizligini pasaytirmagan holda xarajatlarni maqbullashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, kiyim-kechak ta'minoti, harbiy logistika, front orti ta'minoti, ta'minot me'yorlari, foydalanish muddati, qoldiq qiymat, moddiy javobgarlik, budget intizomi, iqtisodiy samaradorlik, real xizmat ehtiyoji, ombor hisobi.

Abstract. This article examines the theoretical, organizational-economic and legal foundations of clothing supply for servicemen in the National Guard system of the Republic of Uzbekistan. Clothing supply is interpreted not merely as the distribution of uniforms, but as a complex economic-logistical system integrating service readiness, personnel safety, mobility, budget discipline and warehouse accounting. The study reveals the relationship between supply norms, useful life, residual value, material responsibility, real service needs and economic efficiency. Based on the analysis, proposals are developed for improving clothing supply through needs-based planning, differentiated norms, life-cycle cost assessment and personal electronic accounting.

Keywords: National Guard, clothing supply, military logistics, rear support, supply norms, useful life, residual value, material responsibility, budget discipline, economic efficiency.

Аннотация. В статье исследованы теоретические, организационно-экономические и правовые основы вещевого обеспечения военнослужащих в системе Национальной гвардии Республики Узбекистан. Вещевое обеспечение рассматривается не только как выдача установленной формы, а как сложная экономико-логистическая система, объединяющая готовность к службе, безопасность личного состава, свободу передвижения, бюджетную дисциплину и складской учёт. Раскрыта взаимосвязь норм обеспечения, сроков эксплуатации, остаточной стоимости, материальной ответственности, реальной служебной потребности и экономической эффективности. На основе проведённого анализа обоснованы предложения по совершенствованию вещевого обеспечения на основе реальной потребности, дифференцированных норм, стоимости жизненного цикла и персонального электронного учёта.

Ключевые слова: Национальная гвардия, вещевое обеспечение, военная логистика, тыловое обеспечение, нормы обеспечения, срок эксплуатации, остаточная стоимость, материальная ответственность, бюджетная дисциплина, экономическая эффективность.

KIRISH

Harbiy tuzilmalarni moddiy-texnik jihatdan barqaror ta'minlash davlat xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlash tizimining muhim shartlaridan biridir. Mazkur yo'nalishda harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak, poyabzal, individual jihozlar va maxsus himoya vositalari bilan o'z vaqtida, sifatli hamda iqtisodiy asoslangan me'yorlar asosida ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Kiyim-kechak ta'minoti tashqi ko'rinish yoki xizmat intizomining ramziy belgisi bo'lish bilan cheklanmaydi; u harbiy xizmatchining xizmat vazifasini bajarishga tayyorligi, sog'lig'i, xavfsizligi, harakat erkinligi, ob-havo va hudud sharoitlariga moslashuvi hamda bo'linmalarning uzluksiz faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.



Jahonda harbiy xarajatlar hajmining ortib borishi moddiy resurslardan oqilona foydalanish, ta'minot zanjirlarini qisqartirish, ombor zaxiralari maqbullashtirish, buyumlarning real foydalanish muddatini ilmiy asoslash va xarid jarayonlarida sifat-narx muvozanatini ta'minlash masalasini dolzarb qiladi. Xalqaro harbiy-logistik amaliyotda kiyim-kechak ta'minoti oddiy xo'jalik sarfi sifatida emas, balki yirik nomenklatura, qat'iy standart, davlat xaridi, zaxira boshqaruvi, xizmat xavfsizligi va moliyaviy intizomni birlashtiruvchi iqtisodiy boshqaruv sohasi sifatida qaralmoqda [7; 8; 9].

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatining xususiyati kiyim-kechak ta'minotiga yanada kengroq nazariy yondashuvni talab etadi. Milliy gvardiya bo'linmalari jamoat tartibini saqlash, muhim obyektlarni qo'riqlash, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlash, patrul-post xizmati, maxsus tadbirlar va favqulodda vaziyatlarda ko'maklashish vazifalarini turli hudud, iqlim, mavsum va xavf darajalarida bajaradi. Demak, kiyim-kechak buyumi bu tizimda faqat forma elementi emas, balki xizmat vazifasini bajarish, fuqarolar bilan muloqotda vizual identifikatsiya, tibbiy-taktik xavfsizlik, iqlimiy himoya va harakatlanish imkoniyatini ta'minlovchi maxsus ashyoviy vositadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Harbiy tuzilmalarni moddiy-texnik ta'minlash masalasi ilmiy adabiyotlarda asosan harbiy logistika, ta'minot zanjiri boshqaruvi va davlat xaridlari samaradorligi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Harbiy logistika nazariyasida asosiy e'tibor operativ faoliyatni uzluksiz moddiy resurslar bilan qo'llab-quvvatlash, zarur buyumlarni o'z vaqtida yetkazib berish, zaxiralarni maqbul darajada saqlash va xarid jarayonida sifat hamda xarajat muvozanatini ta'minlashga qaratiladi. Ushbu yondashuvlar kiyim-kechak ta'minotini oddiy xo'jalik xarajati emas, balki xizmatga shaylik, budjet intizomi va logistika samaradorligi bilan bog'liq boshqaruv tizimi sifatida baholash imkonini beradi.

Harbiy kiyim-kechak ta'minoti bo'yicha mavjud tadqiqotlarda me'yorlar, foydalanish muddati, ombor zaxiralari, moddiy javobgarlik, buyumlarning saqlanishi va ta'minot jarayonlarini takomillashtirish masalalari muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, Milliy gvardiya kabi jamoat xavfsizligi vazifalarini turli hudud, mavsum va xizmat sharoitlarida bajaruvchi tuzilmalar uchun kiyim-kechak ta'minotini real ehtiyoj, xizmat xavfsizligi, qoldiq qiymat, hayotiylik sikli xarajatlari va elektron hisob tizimi bilan bog'liq holda kompleks baholash masalasi yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni nazariy va tashkiliy-iqtisodiy nuqtayi nazardan asoslashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, institutsional-iqtisodiy tahlil, funksional-qiymat yondashuvi, logistika zanjiri tahlili va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida harbiy logistika, ta'minot zanjiri boshqaruvi, davlat xaridlari, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi, ombor zaxiralari va moddiy javobgarlik bo'yicha ilmiy qarashlar olindi [8; 9; 10; 11; 12].

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonuni, harbiy xizmatni o'tash tartibiga oid hujjatlar, shuningdek, harbiy logistika va kiyim-kechak ta'minoti bo'yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilindi [1; 2; 4; 5; 6; 7].

Metodologik yondashuvning asosiy g'oyasi shundan iboratki, kiyim-kechak ta'minotini baholashda faqat xarid qiymati yoki berilgan buyum soni bilan cheklanib bo'lmaydi. Uning samaradorligi xizmat vazifasi, himoya darajasi, ergonomik qulaylik, foydalanish muddati, saqlash xarajati, qoldiq qiymat, moddiy javobgarlik va budjetga tushadigan yillik yuklama bilan birgalikda baholanishi kerak.

Tahlil va natijalar

1-jadval.

Kiyim-kechak ta'minotiga oid nazariy yondashuvlar va ularning Milliy gvardiya tizimidagi talqini¹

Yondashuv	Asosiy mazmuni	Kuchli tomoni	Milliy gvardiya tizimidagi nazariy xulosa
Klassik logistika	Resursni zarur joyga, zarur vaqtda va maqbul xarajat bilan yetkazish	Oqim, ombor, transport va taqsimot intizomini tushuntiradi	Kiyim-kechak zanjiri joriy ehtiyoj, zaxira va tarqatish tezligi asosida baholanadi
Harbiy logistika	Operativ vazifalarni moddiy resurslar bilan uzluksiz qo'llab-quvvatlash	Xizmatga shaylik va maxsus vazifalar bilan bog'laydi	Kiyim-kechak front orti ta'minotining mustaqil va strategik resurs bloki sifatida qaraladi
Huquqiy-ijtimoiy yondashuv	Harbiy xizmatchining davlat kafolati sifatidagi ta'minoti	Xizmat huquqi, ijtimoiy kafolat va tenglikni asoslaydi	Ta'minot huquqi moliyaviy intizom va javobgarlik bilan uyg'unlashadi
Ergonomik-funksional yondashuv	Kiyimning himoya, qulaylik, gigiyena va harakat erkinligiga ta'siri	Real xizmat sharoitini markazga qo'yadi	Me'yor xizmat turi, iqlim, intensivlik va xavf darajasiga moslashtiriladi
Iqtisodiy-samaradorlik yondashuvi	Me'yor, narx, muddat, qoldiq qiymat va xarajat yuklamasi o'rtasidagi nisbat	Budjet tejamlorligi va moddiy javobgarlikni asoslaydi	Samaradorlik xarajatni kamaytirish emas, xavfsizlikni pasaytirmagan holda maqbullashtirishdir

Kiyim-kechak ta'minotining nazariy asosida "me'yor" tushunchasi alohida o'rin tutadi. Me'yor oddiy jadval yoki buyumlar ro'yxati emas, balki xizmat vazifasi, iqlim sharoiti, lavozim tarkibi, xizmat intensivligi, mavsumiy ehtiyoj, maxsus xavf darajasi va buyumdan amalda foydalanish chastotasini hisobga olgan holda shakllanadigan iqtisodiy-huquqiy kategoriya hisoblanadi.

Agar me'yor real ehtiyojdan past belgilansa, harbiy xizmatchining xizmat qulayligi, sovuq yoki issiqdan himoyalani darajasi, vazifani bajarish samaradorligi va xizmat xavfsizligi pasayadi. Aksincha, me'yor real ehtiyojdan ortiq belgilansa, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi pasayadi, ombor zaxiralari ortadi, foydalanilmayotgan buyumlar eskiradi va hisobdan chiqarish jarayonida qo'shimcha xarajatlar shakllanishi mumkin.

Shu bois Milliy gvardiya tizimida ta'minot me'yorlarini nazariy jihatdan baholashda uch omil birgalikda hisobga olinishi zarur: birinchidan, harbiy xizmatchining xizmat vazifasi; ikkinchidan, buyumning amalda foydali xizmat ko'rsatish muddati; uchinchidan, mazkur buyumni me'yorga kiritish yoki undan chiqarishning budjet, xizmat samaradorligi va moddiy javobgarlik tizimiga ta'siri.

Real ehtiyojni aniqlashda shaxsiy tarkib sonining o'zi yetarli ko'rsatkich emas. Bir xil miqdordagi shaxsiy tarkib turli xizmat sharoitida turlicha kiyim-kechak ehtiyojiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, patrul-post xizmatida doimiy harakat va tashqi muhit ta'siri kuchli bo'lsa, ma'muriy xizmatda kiyimning ko'rinish, intizom va vakillik funksiyasi ustun bo'lishi mumkin. Dala mashg'ulotlari, maxsus operatsiyalar, ommaviy tadbirlar va favqulodda vaziyatlarda esa buyumning chidamliligi, ko'p funksionaliligi, himoya darajasi va ta'mirlash imkoniyati birinchi o'ringa chiqadi.

Milliy gvardiya sharoitida kiyim-kechak ehtiyojini shaxsiy tarkib soni bilan bir qatorda xizmat turi, iqlim, mavsum va ekspluatatsiya intensivligi orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Buni quyidagi umumlashtirilgan ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$E_{ij} = N_j \times q_i \times K_{xj} \times K_i q_j \times K_{mj} \times K_{rj}$$

Bu yerda: E_{ij} - j-bo'linma uchun i-buyum bo'yicha real ehtiyoj; N_j - j-bo'linmadagi ta'minlanadigan shaxsiy tarkib soni; q_i - bir nafar harbiy xizmatchi uchun i-buyumning bazaviy me'yori; K_{xj} - xizmat turi koeffitsiyenti; $K_i q_j$ - iqlim va hudud koeffitsiyenti; K_{mj} - mavsumiylik koeffitsiyenti; K_{rj} - ekspluatatsiya intensivligi va xavf darajasi koeffitsiyenti.

Mazkur formula me'yorni faqat jadvaldagi son sifatida emas, balki real xizmat sharoiti bilan bog'langan iqtisodiy ko'rsatkich sifatida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, qishki kiyim, dala formasi, maxsus poyabzal, yomg'irpo'sh, himoya vositalari va inventar buyumlar bo'yicha ehtiyojni aniqlashda ushbu yondashuv amaliy ahamiyatga ega.

Kiyim-kechak ta'minoti nazariyasida foydalanish muddati buyumning shunchaki hisobdan chiqarilish sanasini emas, balki uning belgilangan davr mobaynida amalda foydali xizmat ko'rsatish imkoniyatini bildiradi. Omborda saqlangan vaqtni real foydalanish muddati bilan bir xil talqin qilish nazariy jihatdan to'g'ri emas, chunki saqlash

1 Manba: harbiy logistika, ta'minot zanjiri boshqaruvi va Milliy gvardiya tizimidagi me'yoriy yondashuvlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.



jarayoni buyumning shaxsiy tarkib tomonidan real ekspluatatsiya qilinishini anglatmaydi.

Foydalanish muddati juda qisqa belgilansa, budjet xarajatlari ortadi va buyumlar tez-tez yangilanadi. Muddati sun'iy ravishda uzaytirilsa, harbiy xizmatchining qulayligi, xavfsizligi va xizmat vazifasini bajarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun foydalanish muddati iqtisodiy tejamkorlik bilan ekspluatatsion xavfsizlik o'rtasidagi ilmiy muvozanat asosida belgilanmog'i lozim.

Kiyim-kechak buyumlarining iqtisodiy bahosini aniqlashda xarid narxi, normativ narx, bozor bahosi, qoldiq qiymat va qayta xarid qilish xarajatlari o'rtasidagi tafovut muhimdir. Agar kamomad yoki yo'qotish holatida undirish faqat avvalgi xarid narxi asosida amalga oshirilsa, narxlarning inflyatsion o'zgarishi, joriy bozor qiymati va buyumni qayta sotib olish uchun zarur real budjet xarajati to'liq hisobga olinmaydi. Natijada davlat mulkining tiklash qiymatini to'liq qoplash imkoniyati cheklanishi mumkin.

Shu sababli Milliy gvardiya tizimida moddiy javobgarlik mexanizmini qoldiq foydalanish muddati, joriy bozor qiymati va buyumning real holati bilan bog'lash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv davlat mulkining tiklash qiymatini hisobga oluvchi adolatli va iqtisodiy asoslangan tartibni shakllantiradi.

$$U_i = P_{\beta i} \times (Tq_i / Tm_i) \times Kh_i$$

Bu yerda: U_i - i-buyum bo'yicha undirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy qiymat; $P_{\beta i}$ - buyumning joriy bozor yoki tiklash bahosi; Tq_i - buyumning qoldiq foydalanish muddati; Tm_i - belgilangan umumiy foydalanish muddati; Kh_i - buyumning real holatini ifodalovchi koeffitsiyent. Agar buyum yangi yoki yaxshi holatda bo'lsa, Kh_i yuqori bo'ladi; agar buyum ekspluatatsiya natijasida sezilarli eskirgan bo'lsa, ushbu koeffitsiyent pasaytiriladi.

Mazkur yondashuv kamomad yoki yo'qotish holatlarida undirishni mexanik tarzda eski xarid narxiga bog'lamaydi, balki davlat mulkini qayta tiklash uchun zarur iqtisodiy qiymatni hisobga oladi. Bu moddiy javobgarlikning ham adolatli, ham budjet intizomiga mos shakllanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik odatda erishilgan natijaning sarflangan xarajatlarga nisbati orqali izohlanadi. Biroq harbiy kiyim-kechak ta'minoti sohasida natijani faqat mablag' tejamkorligi bilan baholash yetarli emas. Chunki harbiy xizmatchining sovuqdan himoyalaniishi, harakatlanish qulayligi, jarohat holatida tez aniqlanishi, jamoat joylarida aniq tanilishi va xizmat vazifasini bajarish samaradorligi bevosita kiyim-kechak sifatiga bog'liq.

Shu bois kiyim-kechak ta'minotida iqtisodiy samaradorlik "eng kam xarajat" tamoyiliga emas, balki "maqbul xarajat evaziga zarur funksional natijaga erishish" tamoyiliga asoslanishi kerak. Past narxda xarid qilingan, biroq tez yaroqsizlanadigan buyum yakuniy hisobda qo'shimcha xarajatlarni oshirishi mumkin.

Kiyim-kechak buyumi bo'yicha xarajat yuklamasini baholashda bir martalik xarid narxidan ko'ra yillik xarajat, foydalanish muddati, saqlash xarajati, logistika xarajati, qoldiq qiymat va ekspluatatsiya sharoitlari muhimroq ahamiyatga ega. Shu sababli nazariy tahlilda kiyim-kechak buyumining yillik xarajat yuklamasi alohida ko'rsatkich sifatida ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Yillik xarajat yuklamasi:

$$YXY = \sum [(Q_i \times P_i) / T_i] \times N$$

Bu yerda: YXY - yillik xarajat yuklamasi; Q_i - bir nafar harbiy xizmatchiga beriladigan i-buyum soni; P_i - i-buyumning xarid narxi; T_i - foydalanish muddati; N - ta'minlanadigan shaxsiy tarkib soni. Ushbu formula buyumni bir martalik xarid qiymati bilan emas, balki yillik budjet yuklamasi bilan baholashga yordam beradi.

Biroq real xizmat sharoitida xarid narxiga qo'shimcha ravishda logistika, saqlash, ta'mirlash, qayta tiklash va qoldiq qiymat ham hisobga olinishi kerak. Shu sababli yillik xarajat yuklamasining kengaytirilgan varianti quyidagicha ifodalanadi:

$$YXY^* = \sum \{ [Q_i \times (P_i + L_i + S_i + R_i) - Vq_i] / T_i \} \times N \times Kx_i$$

Bu yerda: YXY^* - kengaytirilgan yillik xarajat yuklamasi; L_i - logistika xarajati; S_i - saqlash xarajati; R_i - ta'mirlash yoki qayta tiklash xarajati; Vq_i - qoldiq qiymat; Kx_i - xizmat sharoiti koeffitsiyenti. Mazkur ko'rsatkich kiyim-kechak ta'minotida iqtisodiy qaror qabul qilishda yanada real natija beradi.

Milliy gvardiya tizimida kiyim-kechak ta'minoti nazariy jihatdan uzluksiz sikl sifatida qaralishi lozim. Ushbu sikl xizmat ehtiyojini aniqlashdan boshlanadi va nazorat, tahlil hamda keyingi rejalashtirish bilan yakunlanadi. Har bir bosqich alohida iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, ularning bir-biridan uzilishi ta'minotdagi nomutanosiblik, ortiqcha xarajat, ombor zaxirasi, noto'g'ri hisob yoki moddiy javobgarlikdagi bo'shliqlarni keltirib chiqaradi.

Xizmat ehtiyoji shaxsiy tarkib soni, lavozim tarkibi, bajariladigan vazifalar xususiyati, hududiy-iqlim sharoiti va xizmat intensivligidan kelib chiqib shakllanadi. Ta'minot me'yori esa bir harbiy xizmatchiga beriladigan buyum nomenklaturasi, miqdori va foydalanish muddatini belgilaydi. Moliyaviy rejalashtirish bosqichida mazkur ehtiyoj budjet xarajatlari ko'rinishida ifodalanadi. Xarid, tikuv va qabul qilish bosqichida narx, sifat, yetkazib berish muddati va texnik topshiriqqa muvofiqlik baholanadi.

Ombor zaxirasini shakllantirish bosqichi ta'minotning uzluksizligi uchun muhim bo'lsa-da, zaxiraning ortiqcha shakllanishi budjet mablag'larining samarasiz band bo'lishiga olib keladi. Taqsimlash bosqichida buyumlar shaxsiy yoki inventar foydalanish xususiyatidan kelib chiqib beriladi. Ekspluatatsiya jarayonida buyumning real foydalilik darajasi, qulayligi, eskirish sur'ati va ta'mirlash ehtiyoji aniqlanadi. Hisobdan chiqarish va qoldiq qiymatni baholash

esa moddiy javobgarlik va keyingi rejalashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

2-jadval.

Kiyim-kechak ta'minoti jarayonining iqtisodiy mazmuni²

Bosqich	Mazmuni	Iqtisodiy ahamiyati
Xizmat ehtiyojini aniqlash	Shaxsiy tarkib, xizmat turi, hudud va mavsum bo'yicha real ehtiyojni belgilash	Ortiqcha yoki kam ta'minlash xavfini kamaytiradi
Ta'minot me'yorini belgilash	Buyum nomenklaturasi, miqdori va foydalanish muddatini aniqlash	Budjet yuklamasi va xizmat qulayligini muvozanatlashtiradi
Moliyaviy rejalashtirish	Ehtiyojni budjet xarajatlari bilan bog'lash	Davlat mablag'larining asoslangan sarflanishini ta'minlaydi
Xarid va qabul qilish	Narx, sifat, texnik topshiriq va yetkazib berishni nazorat qilish	Sifat talablariga to'liq javob bermaydigan xarid va takroriy xarajatlarning oldini oladi
Ombor zaxirasi	Markaziy va bo'linma zaxirasini maqbullashtirish	Uzluksizlikni saqlaydi, lekin ortiqcha zaxirani cheklaydi
Ekspluatatsiya	Buyumning real xizmatda foydalanilishi va eskirishini kuzatish	Foydalanish muddatini ilmiy asoslashga xizmat qiladi
Hisobdan chiqarish	Yaroqsiz, eskirgan yoki yo'qotilgan buyumlarni rasmiylashtirish	Qoldiq qiymat va moddiy javobgarlikni aniqlaydi
Nazorat va qayta rejalashtirish	Natijalarni tahlil qilib keyingi ta'minot sikliga kiritish	Me'yor va xarajatlarni real amaliyotga moslashtiradi

Kiyim-kechak ta'minotida amaliy muammolardan biri avvalgi yillar bo'yicha hisob-kitob qilish va joriy ehtiyojning real vaqtda ko'rinmasligidir. Bunday holatda harbiy xizmatchining qaysi buyumni qachon olgani, buyumning qaysi muddatgacha foydalanilishi, qaysi buyum omborda saqlanayotgani, qaysi buyum ta'mirlashga yoki almashtirishga muhtojligi aniq ko'rinmasligi mumkin. Natijada ta'minot qarorlari real xizmat ehtiyojiga emas, o'tgan davrlar hisobiga yoki umumiy reja ko'rsatkichlariga bog'lanib qoladi.

Nazariy jihatdan kiyim-kechak ta'minoti real vaqt rejimidagi ma'lumotlar asosida boshqarilishi lozim. Bunda har bir harbiy xizmatchi bo'yicha shaxsiy elektron kiyim-kechak kartasi yuritiladi. Ushbu kartada buyum turi, o'lchami, berilgan sanasi, foydalanish muddati, ta'mirlash holati, almashtirish zarurati, qoldiq qiymati va qaytarilgan buyumlar aks ettiriladi. Bu tizim ortiqcha zaxira, noto'g'ri o'lcham, takroriy berish, hisobdan chiqarish jarayonidagi noaniqliklar hamda moddiy javobgarlikdagi tafovutlarni kamaytiradi.

Real vaqt rejimidagi ta'minot konsepsiyasi ta'minot tizimini "qarzdorlikni qoplash" yondashuvidan "joriy xizmat ehtiyojini to'liq qondirish" yondashuviga o'tkazadi. Bunda shaxsiy tarkibning lavozim o'zgarishi, xizmat joyi, iqlim zonasi, maxsus vazifaga jalb etilishi yoki buyumning yaroqsiz holga kelishi darhol ta'minot hisobiga ta'sir qiladi.

Shaxsiy kiyim-kechak kartasi asosida ta'minot aniqligi indeksi:

$$TAI = 1 - (|Q_r - Q_a| / Q_r)$$

Bu yerda: TAI - ta'minot aniqligi indeksi; Q_r - real ehtiyoj bo'yicha berilishi lozim bo'lgan buyumlar soni; Q_a - amalda berilgan buyumlar soni. Indeks 1 ga yaqinlashgan sari ta'minot real ehtiyojga yaqin bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich bo'linmalar kesimida ta'minot intizomini baholash, zaxiralarni maqbullashtirish va kelgusi xaridlarni asoslashda qo'llanilishi mumkin.

Milliy gvardiya tizimida kiyim-kechak ta'minotining o'ziga xos jihati shundaki, iqtisodiy qarorlar doimo xizmat xavfsizligi bilan bog'liq holda qabul qilinishi kerak. Masalan, qishki kiyim, bosh kiyim yoki poyabzal bo'yicha foydalanish muddatini uzaytirish budjet xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Biroq bunday qaror buyumning sovuqdan himoya qilish xususiyati, gigiyenik holati, ergonomik qulayligi va real xizmat sharoitidagi xavfsizlikka ta'siri bilan birga baholanishi zarur.

Xuddi shuningdek, maxsus forma rangini tanlashda ham faqat tashqi ko'rinish yoki an'anaviy dizayn mezoni yetarli emas. Rang harbiy xizmatchining jamoat joyida tanib olinishi, jarohat belgilarining tez aniqlanishi, tibbiy yordam ko'rsatish, niqoblanish, shahar muhitiga moslashish va fuqarolar bilan kommunikatsiya jarayonlariga ta'sir qiladi. Demak, kiyim-kechak ta'minotida xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni ajratib ko'rib bo'lmaydi.

Shu bois kiyim-kechak buyumlarini baholashda integral funksional-iqtisodiy ko'rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu ko'rsatkich xarajetni kamaytirish bilan birga himoya, qulaylik, chidamlilik va xizmat xavfsizligi pasayib ketmasligini nazorat qiladi.

2 Manba: Milliy gvardiya kiyim-kechak ta'minoti sikli va harbiy logistika yondashuvlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Integral funksional-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi:

$$IFSK_i = (\beta_1 H_i + \beta_2 E_i + \beta_3 G_i + \beta_4 D_i + \beta_5 V_i) / C_i$$

Bu yerda: IFSK_i - i-buyumning integral funksional-iqtisodiy samaradorligi; H_i - himoya darajasi; E_i - ergonomik qulaylik; G_i - gigiyenik moslik; D_i - ekspluatatsion chidamlilik; V_i - xizmat vazifasiga moslik va vizual identifikatsiya ko'rsatkichi; C_i - buyumning yillik xarajat yuklamasi; β₁...β₅ - mezonlarning ahamiyat koeffitsiyentlari. Ko'rsatkich yuqori bo'lsa, buyum nisbatan kam xarajat evaziga ko'proq funksional natija beradi.

Kiyim-kechak ta'minotining nazariy asoslari uning huquqiy mazmuni bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari qonunchilikda belgilangan tartibda kiyim-kechak ta'minoti bilan ta'minlanishi belgilangan [1]. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga oid hujjatlar esa harbiy xizmatchilar uchun kiyim-kechak ta'minotini davlat majburiyati sifatida mustahkamlaydi [2].

Milliy gvardiyaning ichki me'yoriy hujjatlari kiyim-kechak buyumlarini kiyish, saqlash, hisobga olish, moddiy vositalar harakatini yuritish, hisobot va xabarnomalarni taqdim etish, ombor faoliyatini tashkil etish, ta'minot me'yorlariga rioya qilish kabi masalalarni tartibga soladi [1; 2]. Bu hujjatlar kiyim-kechak ta'minotini faqat xo'jalik jarayoni sifatida emas, balki intizom, hisob, javobgarlik va xizmat xavfsizligi bilan bog'langan institutsional tizim sifatida shakllantiradi.

Nazariy jihatdan me'yoriy-huquqiy baza ikki vazifani bajarishi kerak. Birinchidan, harbiy xizmatchining ta'minot huquqini kafolatlashi lozim. Ikkinchidan, davlat mablag'lari va moddiy boyliklaridan oqilona foydalanish, buyumlarning saqlanishi, hisobdan chiqarilishi va kamomad holatlarida undirilishini adolatli tartibga solishi kerak. Agar ushbu ikki vazifa muvozanatlashmasa, bir tomondan ta'minot kafolatlarining to'liq ta'minlanmasligi, ikkinchi tomondan esa budjet intizomi va moddiy javobgarlik mexanizmlarining samaradorligi pasayishi mumkin.

Milliy gvardiya tizimida kiyim-kechak ta'minotining nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish uchun birinchi navbatda ta'minot me'yorlari real xizmat ehtiyojiga moslashtirilishi zarur. Bu jarayonda xizmat turi, lavozim, hudud, iqlim, mavsum, xizmat intensivligi va xavf darajasi bo'yicha differensial yondashuv qo'llanilishi kerak. Bir xil me'yor barcha bo'linmalar uchun bir xil samaradorlik bermaydi, chunki Milliy gvardiya vazifalari turli sharoitlarda bajariladi.

Ikkinchi yo'nalish kiyim-kechak buyumlarining foydalanish muddatini real foydalanish jarayoni ma'lumotlari asosida qayta baholashdir. Bunda buyumning omborda saqlangan va shaxsiy tarkib tomonidan amalda ishlatilgan davri ajratilishi lozim. Foydalanish muddatini aniqlashda eskirish darajasi, yuvish yoki tozalash sikli, ta'mirlash ehtiyoji, mavsumiy foydalanish xususiyati va xizmat xavfsizligiga ta'sir hisobga olinishi kerak.

Uchinchi yo'nalish shaxsiy va inventar buyumlarni hisobga olish tizimini raqamlashtirishdir. Har bir harbiy xizmatchi bo'yicha shaxsiy kiyim-kechak kartasi yuritilishi, har bir buyum bo'yicha inventar raqam, berilgan sana, foydalanish muddati, qoldiq qiymat va qaytarish holati qayd etilishi maqsadga muvofiq. Bu moddiy javobgarlikni kuchaytirish bilan birga, real ehtiyojni oldindan prognozlash imkonini beradi.

To'rtinchi yo'nalish kiyim-kechak xaridlarida faqat eng past narx emas, balki sifat, chidamlilik, servis xarajati, ta'mirlash imkoniyati va yillik xarajat yuklamasini hisobga olishdir. Bu yondashuv sifat talablariga to'liq javob bermaydigan, qisqa muddatda yaroqlilik xususiyatini yo'qotadigan yoki xizmat sharoitiga mos kelmaydigan buyumlar hisobiga yuzaga keladigan yashirin xarajatlarni kamaytiradi.

Beshinchi yo'nalish hisobdan chiqarilgan, ta'mirlashga yaroqli yoki qayta foydalanish mumkin bo'lgan buyumlar bo'yicha qaytish oqimlarini tashkil etishdir. Bu jarayon reverse logistics (qaytarma logistika) elementlarini joriy qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada yaroqli buyumlar qayta tiklanadi, yaroqsiz buyumlar belgilangan tartibda utilitatsiya qilinadi, moddiy boyliklar harakati esa hujjatlashtirilgan nazorat ostida bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, Milliy gvardiya tizimida harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak bilan ta'minlash oddiy forma berish, buyum xarid qilish yoki ombor hisobi yuritish jarayoni emas. Bu tizim xizmatga tayyorlik, jamoat xavfsizligi, harbiy xizmatchining sog'lig'i va xavfsizligi, budjet intizomi, moddiy javobgarlik hamda ombor-logistika jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab iqtisodiy-logistik boshqaruv obyektidir.

Kiyim-kechak ta'minoti nazariy jihatdan klassik logistika, harbiy logistika, huquqiy-ijtimoiy kafolat, ergonomik-funksional yondashuv va iqtisodiy samaradorlik tamoyillarining uzviy birligida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvlarning har biri alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, Milliy gvardiya sharoitida ularni birgalikda qo'llash zarur. Chunki kiyim-kechak buyumi bir vaqtning o'zida xizmat vositasi, davlat mulki, shaxsiy foydalanish predmeti, inventar aktiv, xavfsizlik elementi va budjet xarajati sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'minot me'yorlari real xizmat ehtiyojidan uzilib qolsa, nomutanosibliklar yuzaga keladi: me'yor yetarli bo'lmasa, harbiy xizmatchining himoyalaniishi va xizmat samaradorligi pasayadi; me'yor ortiqcha bo'lsa, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi pasayadi, ombor zaxiralari ko'payadi va foydalanilmayotgan buyumlar



eskiradi. Shu bois me'yorlar xizmat turi, iqlim, mavsum, intensivlik va xavf darajasiga moslashtirilishi lozim.

Foydalanish muddati, qoldiq qiymat va moddiy javobgarlik kiyim-kechak ta'minotining markaziy iqtisodiy kategoriyalaridan biridir. Kamomad yoki yo'qotish holatlarida undirish mexanizmi eski xarid narxiga emas, balki joriy bozor qiymati, qoldiq foydalanish muddati va buyumning real holatiga asoslanishi davlat mulkining tiklash qiymatini to'liqroq qoplash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 18-noyabr, O'RQ-647-son. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-5128310>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4447-son qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-4513434>
3. Stockholm International Peace Research Institute. Unprecedented rise in global military expenditure as European and Middle East spending surges. — SIPRI, 28 April 2025.
4. Гостищев Ю.В. Логистика системы вещевого обеспечения Вооружённых сил в рыночных условиях: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.06. — Санкт-Петербург, 1998. — 156 с.
5. Абрамов А.К., Волчков Д.А., Грошков Д.В. Совершенствование системы вещевого обеспечения военных потребителей на основе использования конвергентного подхода // Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. — 2017. — № 3 (33). — С. 25–28.
6. Defense Logistics Agency. DLA Troop Support: Clothing and Textiles. — Official website.
7. Kress M. Operational Logistics: The Art and Science of Sustaining Military Operations. 2nd ed. — Cham: Springer, 2016.
8. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. — London: Pearson Education, 2016.
9. Simchi-Levi D., Kaminsky P., Simchi-Levi E. Designing and Managing the Supply Chain: Concepts, Strategies, and Case Studies. 3rd ed. — Boston: McGraw-Hill/Irwin, 2008.
10. Ballou R.H. Business Logistics/Supply Chain Management: Planning, Organizing, and Controlling the Supply Chain. 5th ed. — Upper Saddle River: Pearson Prentice Hall, 2004.
11. Lambert D.M. Supply Chain Management: Processes, Partnerships, Performance. 4th ed. — Ponte Vedra Beach: Supply Chain Management Institute, 2014.
12. Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Флинн Ш.М. Экономика: принципы, проблемы и политика: учебник. 19-е изд. — М.: ИНФРА-М, 2017. — 1027 с.
13. Цельковских А.А., Курбанов А.Х., Плотников В.А. Система материально-технического обеспечения военной организации государства: особенности функционирования и перспективы развития // Управленческое консультирование. — 2014. — № 12. — С. 16–28.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100